

UCHLIKDAGI UZVLAR

Aminjonova Go`zal Umidjonovna

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o`zbek tili va adabiyoti universiteti
talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18280857>

Annotatsiya. Ushbu maqolada Uilyam Shekspir, Charles Dikens, Nikolay Gogol hayoti va mashhur asarlari haqida so`z yuritiladi. Ayni paytda ularning “Otello”, “Oliver Tvistning sarguzashtlari”, “Revizor” asarlari hamda ularning qiyosiy tahlili tadqiqot uchun asos qilib olingan.

Kalit so`zlar: Fogin, Yago, Xlestakov, “soxta niqoblar”, “sinovchi kuchi”, Oliver, “tirik o`yinchoqlar” Hokim, Kassio, Dezdemon, Emiliya.

XVI-XVII asr Angliyasi, bu davr Elizabet davri hisoblangan. Bu davr Angliya Uyg`onish davrining eng gullagan davri edi. Bu davrda siyosiy barqarorlik yaratilgan, san`at va adabiyot yuksalgan. XIX asr Angliyasi, bu davr Viktoriya davri hisoblangan. Bu davrda sanoat inqilobi boshlangan, katta fabrikalar qurilgan. Boy va kambag`al tabaqa o`rtasida keskin tavofut mavjud bo`lgan. Bolalar, kambag`allar og`ir mehnat qilishgan.

XIX asr Rossiyasi, bu davrda Aleksandr I hukmronlik qilgan, keyin taxtga Nikolay I chiqdi. U mutloq monarx bo`lib, ozod fikrli adib va ziyolilarni nazorat qilgan. Bu uch davrda, uch yozuvchi dunyoga keldi. Bular: Uilyam Shekspir, Charles Dikens, Nikolay Gogol.

Ingliz dramaturgi shoir va aktyor Uilyam Shekspir 1564-yil 26-aprel Stratford-upon-Avon shahrida dunyoga kelgan. U 17 komediya, 10 ta xronika, 11 ta fojia, 5 ta poema, 154 ta sonet muallifi. U aktyor sifatida 15 yil faoliyat yuritgan. Uni dunyoga tanitgan asarlari “Hamlet” “Qirol Lir” “Yuliy Sezar” “Otello” tragediyalaridir.

Yana bir ingliz yozuvchisi Charles Dikens adabiy faoliyatini 1833-yilda boshlagan.

Dikens tanqidiy realizm asoschilaridan biri bo`lgan. Dikensni dunyoga mashhur qilgan romanlari “Oliver Tvistning sarguzashtlari”, “Nikolas Niklbi”.

Rus yozuvchisi Nikolay Gogol 1809-yil Poltava guberniyasi, Mirgorod uyezdida tug`ilgan.

Rus adabiyotida tanqidiy realizmga asos solgan. “Dikanka qishlog`i oqshomlari” to`plami Gogolga shuhrat keltirdi. 1835-yilda “Revizor” ustida ishlashni boshlaydi va u bu asar ustida sakkiz yil ishlagan.

Bu yozuvchilarning eng mashhur uch asari, ya`ni “Otello”, “Revizor”, “Oliver Tvistning sarguzashtlari”. Bu uch asar turlicha davrda yozilgan bo`lsa-da ularning qahramonlari bir-biriga o`xshashdir va shu bilan birga farqli jihatlari ham bor. Bu uch turlicha asarning turlicha qahramonlari. Ular: Fogin, Yago, Xlestakov. Bu asarlar qahramonlari yuziga turlicha soxta niqoblarni kiyib, insonlarni va jamiyatni aldaydilar. “Oliver Tvistning sarguzashtlari” asaridagi Fogin bolalarga mehribon ko`ringan holda ularni o`g`irlikka majbur qiladi. “Otello” asaridagi Yago Otelloga sodiq do`stdek ko`rinadi, aslida fitna uyishtiradi. “Revizor” asaridagi Xlestakov oddiy bekorchi bo`lsa-da, o`zini katta amaldordek ko`rsatadi. Ularning yuzi aslida ikkita. Biri soxta obrazni yaratsa, biri ichidagi g`araz niyatlarini ochib beradi.

Fogin g`amxo`rlik niqobi ostida, Yago sadoqat niqobi ostida, Xlestakov mansabdorlik niqobi ostida soxta obrazlarni yaratadi.

Ularning yana bir o`xshash tarafi manfaatparastlik, ya`ni uchalasi ham manfaatparast.

Fogin pul va foyda uchun bolalarning taqdirini buzadi. Yago o`zining mansab va nafratini qondirish uchun do`stini halok qiladi. Xlestakov o`zining qulay hayoti va moddiy manfaatlari uchun yolg`on gapiradi. Atrofdagilarni boshqarish qobiliyati bu qobiliyat bu uch qahramonda mujassam, Fogin bolalarga shirin gapirib, o`ziga bo`ysundiradi. Yago soxta samimiyligi bilan Otello va boshqalarning ongini o`zgartiradi. Xlestakov yolg`on gaplari bilan amaldorlarni ishontiradi. *Bu qahramonlar jamiyatning "sinovchi kuchi". Fogin Oliver Tvistning halolligini, Yago Otelloning sevgisi va ichonchini, Xlestakov shaharchadagi amaldorlarning vijdonini sinaydi.*

Bu uch qahramonning yana o`xshashligi ular pulparast. Fogin butun hayotini pul va boylikka bag`ishlagan. U bolalarni o`g`rilikka o`rgatadi, lekin ularning topgan hamma narsasini o`zining cho`ntagiga uradi. U shogirdlarini "tirik o`yinchoq" sifatida ishlatadi. Yago pul uchun odamlarni aldaydi. Rodrigo degan boyni Dezdemonani seniki qilib beraman deb aldab, uni cho`pchaklariga ishontiradi va pulini shilib yuradi. Xlestakov shahardagi hokimning qiziga uylanmoqchi bo`lib, boylikka erishishni o`ylaydi. Endi bu uch qahramonning farqli taraflari shundaki Yagoda Fogin va Xlestakovda bo`lmagan bir xislat bor, u ham bo`lsa hasad va nafrat.

Yago Otello uni emas Kassioni o`zining yordamchisi sifatida tanlagani uchun Kassioaga xasad qiladi va Otellodan nafratlanadi.

Yana bir farqli jihati o`z nafsi yo`lida qurbonlik qilish. Yago va Fogin bolalar va do`stlarini qurbon qiladi, Xlestakovda bunday jihat yo`q. Yago va Fogin obrazlarida ayb o`zida bo`ladi, Xlestakovda poraxo`r amaldorlarda. Foginni o`zining sheriklari sotadi, Yagoni o`z xotini Emiliya ro`mol voqeasini aytib uning kirdikorlarini ochib beradi, Xlestakov do`stiga yozgan xatidan fosh bo`ladi.

Haqiqatni tez fosh bo`lishi. Asarlar oxirida soxta qahramonlarning asl yuzlari ochiladi.

Fogin va Yago oxirida fosh bo`lib jazoga tortiladi. Xlestakov ham oxirida kimligi bilinib, sharmanda bo`ladi. Bu asarlar jamiyatdagi illatlarni ko`rsatish uchun yaratilgan asarlardir. *Fogin kambag`allik va jinoyatning qora dunyosini, Yago rashk va ishonuvchanlikning xavfini, Xlestakov amaldorlarning mansabparastlik va qo`rqoqligini ochib beradi.*

Bu uch yozuvchi asarlarida yomon qahramonlarni tasvirlab bermagan, balki o`sha davr jamiyatidagi va xalq o`rtasidagi shunaqa manfaatparast, firibgar va hasadgo`y insonlarni ko`rsatib bergani bilan qadrlri sanalishadi.

Foydalangan adabiyotlar:

1. "Oliver Tvistning sarguzashtlari" Charles Dikkens Toshkent-1984
2. "Revizor" Nikolay Gogol "O`qituvchi" nashriyoti Toshkent-1974
3. "Otello" Uilyam Shekspir "G`afur G`ulom nomidagi Adabiyot va san`at nashriyoti" Toshkent-1981